



AVTODROMLAR, ULARNING SINFLANISHI VA ULARDAN AVTOTRANSPORT VOSITALARI HAYDOVILARINI TAYYORLASHDA FOYDALANISH

¹Suyarov Nurali Jovli o'g'li
nuralisuyarov19@gmail.com

Toshkent Davlat Transport Universiteti

Annotatsiya:

Maqolada turli toifadagi transport vositalari haydovchilarini tayyorlash qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish imtihon olish uchun avtodromlarni jihozlash hamda ularni turlarini tahlil qilish ishlari amalga oshirildi, shu bilan birga amaliy imtihon olish jarayonida mashg'ulotlar ketma ketligi ko'rsatildi. Haydovchilarning transport vositasini murakkab sharoitlarda boshqarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf xatarlarda haydovchilarga xavfsiz boshqarish usullari ko'rib chiqildi. Yo'l transport hodisalarini oldini olish shu bilan birga haydovchilarni mehnatini muhofaza qilgan holda avtomobil yo'llarida o'tkazuvchanlikni va xavfsizlikni oshirish chora tadbirlari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Avtomobil yo'llari, harakat xavfsizligi, haydovchining mehnati, to'xtash, to'xtab turish, turliyo'l, chorrahaning, harakatlanish tasmasi, qatnov qismi, yo'llarni o'tkazuvchanligi, zararli moddalar, transport oqimlari, transport infratuzilmasi, avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish, davlat yo'l siyosati, yo'l transporti.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, **2018 yildagi 31-maydagi** avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida **408-sonli** qarorining **2-ILOVASI I-bobi** Avtomatlashtirilgan avtodromga qo'yiladigan talablarga qo'yilgan talablar o'z aksini topgan. Avtomatlashgan avtodromlar belgilangan talablarga mos bo'lishi

haydovchilarni tayyorlash, hamda qayta tayyorlash, malakasini oshirish, amaliy imtihon olish jarayonlarida ta'lim sifatini oshirishga shuningdek avtomobilni boshqarishda avtodromlardagi texnik vositalar qatnov qismi kengligi real ko'cha sharoitiga yaqin bo'lishi kerak (1-rasm).

O'quv avtodromi – bu o'quvchilarga hayotdagi real sharoitga maksimal yaqinlashtirilgan holatda transport vositasini boshqarish ko'nikmalarini berish uchun mo'ljallangan. Undan «B», «C», «D», «E» toifadagi transport vositalari haydovchilarini tayyorlash (malakasini oshirish) uchun foydalaniladi. Qaysi o'quv tashkilotida avtodrom bo'lsa va undan to'g'ri foydalanilsa o'quvchilar shu yerda chuqur ko'nikmaga ega bo'lishini tajribalar ko'rsatmoqda, o'quv avtodromi bo'lmasa avtomobil boshqarishni o'rgatuvchi instruktorni ishi murakkablashadi. O'quv jarayoni soddalashadi. Odatda bunday paytlarda o'rgatuvchi instruktorni asosiy e'tibori mashqlarni o'quvchi aniq va ketma-ket bajarishiga emas, balki harakat xavfsizligini ta'mirlashga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari u doimiy ravishda tormoz va ulash tepkilarini bosishga tayyor turganligi sababli tezda charchaydi, oqibatda o'quvchilar harakatini nazorat qilish susayadi.



1-rasm Avtomatlashgan avtodrom, imtihon topshirish ketma ketligi

O'quv tashkiloti faqat «D» yoki «E» toifa haydovchilarni tayyorlaydigan bo'lsa, avtobus yoki avtopoezdga boshqarishni o'rgatish uchun maydoncha jihozlanishi



kerak Maydonchada eng kamida ikkita avtobus bekati belgilanadi va egri yo‘l qismi yoki «ilon» izi elementi, orqaga yurgizish yoki qayrilish joyi, darvoza, «tonnel», «boks» va aylanma yo‘nalish jihozlanadi. Yaqin orada 16% qiyalikli tepalik bo‘lmasa, tegishli tepalik yoki estakada quriladi. Qayrilish uchun dastlabki mashq maydonchasi va aylanma yo‘nalishdan foydalaniladi.

O‘quv avtodromi elementlari va yo‘llarning holati ob-havo sharoitidan qat’iy nazar butun o‘qish jarayoni davomida o‘quv rejasini sifatli bajarishni ta’minlashi kerak. Shuning uchun yo‘l va elementlarining qatnov qismlari qattiq qoplamali (tosh, shag‘al, asfalt) bo‘lishi lozim.

Ayrim elementlarni jihozlashda ulardan maksimal o‘quv jarayonida foydalanish ko‘zda tutilishi va aniq o‘lchamlarda yasalişini ta’minlash kerak.

Avtodromlarning quyidagi turlari va ulardan foydalanish sohalari mavjud:

1. Poyga sxemalari ko‘rinishidagi avtodrom.—Professional avtopoygalar va musobaqalar uchun mo‘ljallangan avtodromlar.

2. Trening sxemali avtodrom.—Haydovchilikni tayyorlash va haydovchilik guvohnomasi imtihonlari uchun foydalaniladi.

3. Sinov sxemalari avtodrom.—Avtomobillar va ularning qismlarini sinash uchun ixtisoslashtirilgan treklar avtodromlar.

4. Ko‘ngilochar poyga yo‘llari avtodromla.—Korporativ tadbirlar, test-drayvlar va boshqa ko‘ngilochar tadbirlar uchun muljallanga avtodromlar.

O‘quv avtodromlari avtomaktablarda qo‘llaniladi, bu yerda o‘quvchilar asosiy haydash ko‘nikmalarini mashq qiladilar, manevr qilish asoslarini o‘rganadilar va mashqlar bajarishni o‘rganadilar.

Avtomatlashtirilgan haydash poligonlari avtotransport vositalarini boshqarish ko‘nikmalarini nazorat qilish va baholash tizimi bilan jihozlangan bo‘lib, u imtihon topshiruvchi ishtirokisiz test mashqlari bajarilishini qayd etish, ularning natijalarini qayta ishlash va rasmiylashtirish imkonini beradi. Bunday platformalar nafaqat avtomaktablarda, balki “Avtomobilsozlik” kursi o‘qitiladigan ta’lim muassasalarida ham qo‘llaniladi.



Bugungi kunda haydovchini transport vositasini boshqarish guvohnomasini olish uchun yagona imtihon markazi imtihon topshirishga tayyorlashda mashqlar (elementlar), Asosiy elementlar quyidagilardir:

- ✚ Nishab yoki yo‘l o‘tkazgichda harakatni to‘xtatish va boshlash;
- ✚ Ta‘mirlash chuquriga teskari kirish;
- ✚ Parallel to‘xtash joyi (orqaga va oldinga);
- ✚ 90 gradusli burilish;
- ✚ Cheklangan ko‘rinish joyda burilish;
- ✚ To‘xtash joyi va avtoturargohdan chiqish;

Avtodromlarda qo‘llaniladigan asosiy va qo‘shimcha jixozlar.

O‘quv avtodromi o‘quv dasturi bo‘yicha haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va mashqlarni to‘la bajarish uchun jihozlangan bo‘lishi zarur. Ammo bunda ancha katta mablag‘ va yer maydoni talab qilinadi. Bundan tashqari shunday sharoitda tayyorlangan haydovchi amaliy hayotda ishlash uchun psixologik tayyor bo‘lmaydi.

Uquv avtodromining jihozlari faqat avtodromdan tashqarida bajarib bo‘lmaydigan mashqlarni bajarish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi shart. Bunday mashqlarga dastlabki o‘rgatish mashqlari, cheklangan joylarda boshqarish mashqlari, maxsus elementlarda bajariladigan mashqlar kiradi. Bir vaqtda uch va undan ortiq «B» va «BC» toifadagi haydovchilar tayyorlanayotgan o‘quv tashkilotiga, o‘rganiladigan ikki asosiy tur avtomobili uchun 3 ga yer maydonida o‘quv avtodromi jihozlanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Анализ перегруженных участков на улицах города Ташкента Мусулманов Кувончбек Насруллоевич, Сайдаметова Фазилат Жамоладдиновна, февраль, 2023 г.
2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori.



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th May, 2025

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 08.11.2022y PQ-415 Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida to‘g‘risidagi qarorlari
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha qaror.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.07.2022 yildagi PQ-316-son 2022 — 2026-yillar davomida respublika hududida amalga oshirilishi mo‘ljallangan Xavfsiz va ravon yo‘l umummilliy dasturi
6. Shahar yo‘llarida harakat xavfsizligini tashkil etish. Darslik. Q.X. Azizov
7. N. F. Muhitdinov, G. K. Nurmuhammedov, R. N. Dimitov Yo‘l harakati qoidalariga sharhlar Toshknet - 2005
8. Azizov K. X., Darobov M., Sayfuddinova R. N. obospechenie bezaposnisti
9. <https://lex.uz/docs/-595388> 10. <https://pdd-uzbeki.narod.ru/stop.h>
10. Анализ Методов повышения безопасности движения на нерегулируемых перекрестках крупных городов (на примере города томска) Пушкарева Г.В., Халтурин Д.Д., 2023.